



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



**ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026**

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминлар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131
20.	Doniyev Shahob O'tkir o'g'li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta'minlash	142
22.	Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
23.	Mirmahmudova Xusniddinovna	O'zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160





24.	Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta’minotini boshqarish usullari	167
25.	Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari	179
26.	Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag'batlantirishni takomillashtirish	191
27.	Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
28.	Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta’minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
29.	Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
30.	Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich

mustaqil izlanuvchi

A.Avloniy nomidagi pedagogik

mahorat milliy instituti

E-mail: tulyaganov_ka@gmail.com

ORCID: 0009-0002-9268-2143

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari tizimli yondashuv asosida tadqiq etilgan. Iqtisodiy islohotlarning institutsional va tarkibiy xususiyatlari tahlil qilinib, bank-moliya tizimi va davlat korxonalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini maqbullashtirish, xususiy sektor va raqobat muhitini rivojlantirish, iqtisodiyot va davlat boshqaruvini raqamlashtirish hamda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishning o‘zaro bog‘liqligi asoslangan. Shuningdek, amalga oshirilayotgan islohotlarni o‘zaro muvofiqlashtirish orqali raqobatbardosh, xususiy sektor yetakchiligiga asoslangan, raqamli va barqaror milliy iqtisodiyot modelini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy transformatsiya, tarkibiy islohotlar, bank-moliya tizimi, davlat korxonalari, xususiylashtirish, xususiy sektor, raqobat muhiti, raqamli transformatsiya, transport-logistika infratuzilmasi, institutsional islohotlar, barqaror iqtisodiy o‘sinh.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Туляганов Кудратилла Асатуллаевич

самостоятельный исследователь

национальный институт педагогического

мастерства имени А.Авлони

E-mail: tulyaganov_ka@gmail.com

ORCID: 0009-0002-9268-2143

Аннотация. В статье на основе системного подхода исследованы приоритетные направления трансформации экономики Республики Узбекистан. Проанализированы институциональные и структурные особенности экономических реформ, обоснована взаимосвязь трансформации банковско-финансовой системы и государственных предприятий, оптимизации непосредственного участия государства в экономике, развития частного сектора и конкурентной среды, цифровизации экономики и государственного управления, а также модернизации транспортно-логистической инфраструктуры. Разработаны научно-практические выводы по формированию конкурентоспособной, цифровой и устойчивой модели национальной экономики, основанной на ведущей роли частного сектора и взаимной согласованности проводимых реформ.

Ключевые слова: экономическая трансформация, структурные реформы, банковско-финансовая система, государственные предприятия, приватизация, частный сектор, конкурентная среда, цифровая трансформация, транспортно-логистическая инфраструктура, институциональные реформы, устойчивый экономический рост.

PRIORITY AREAS FOR THE TRANSFORMATION OF THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN





Tulyaganov Kudratilla Asatullaevich

*Independent researcher
National institute of pedagogical
excellence named after A.Avloni
E-mail: tulyaganov_ka@gmail.com
ORCID: 0009-0002-9268-2143*

Abstract. *This article examines the priority areas for the transformation of the economy of the Republic of Uzbekistan based on a systematic approach. The institutional and structural features of ongoing economic reforms are analyzed, and the interrelationship between the transformation of the banking and financial system and state-owned enterprises, optimization of direct state participation in the economy, development of the private sector and competitive environment, digitalization of the economy and public administration, and modernization of transport and logistics infrastructure is substantiated. Scientific and practical conclusions are developed for shaping a competitive, digital, and sustainable national economic model based on the leading role of the private sector and the coordinated implementation of structural and institutional reforms.*

Keywords: *economic transformation, structural reforms, banking and financial system, state-owned enterprises, privatization, private sector, competitive environment, digital transformation, transport and logistics infrastructure, institutional reforms, sustainable economic growth.*

Kirish

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotning ma'muriy tartibga solishga asoslangan modelidan bozor mexanizmining rolini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy modelga bosqichma-bosqich o'tishiga xizmat qilmoqda. Xususan, valyuta va tashqi savdo munosabatlarini liberallashtirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish, bank tizimini isloh qilish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish, davlat korxonalarini transformatsiya qilish hamda iqtisodiyotni raqamlashtirish ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlarini tashkil etmoqda.

Mazkur islohotlarning yangi bosqichga o'tishida 2021-yil 6-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimda kelgusi besh yil uchun mamlakat taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlarini qamrab olgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ilgari surilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur strategiya yettita ustuvor yo'nalishni qamrab olib, 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi[1] doirasidagi islohotlarning mantiqiy va uzviy davomi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional o'zgarishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratildi. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishi - "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" mamlakatda iqtisodiy transformatsiyani chuqurlashtirishning strategik asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalarni 2017-2021-yillardagi Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo'yicha boshlangan islohotlarining yangi sifat bosqichi sifatida baholash mumkin. Zero, oldingi bosqichda amalga oshirilgan valyuta bozorini liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash va bozor institutlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar keyingi tarkibiy transformatsiyalar uchun zarur institutsional zamin yaratdi.

Mazkur islohotlarning mantiqiy va institutsional davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" tasdiqlandi. Strategiyada mamlakatni rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi va ular doirasida amalga oshirilishi nazarda tutilgan 100 ta maqsad belgilandi. Ushbu strategik hujjat 2017-2021-yillarda shakllantirilgan iqtisodiy va institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish, bozor mexanizmini





keng joriy etish, xususiyl sektorning iqtisodiyotdagi rolini oshirish hamda barqaror va yuqori iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga qaratildi.

Biroq iqtisodiy transformatsiyaning ko'p qirrali xususiyati uning alohida tarkibiy yo'nalishlari o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aniqlash, amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash hamda ularni yagona strategik maqsadlar bilan muvofiqlashtirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishni talab etadi. Ayniqsa, davlat sektorini transformatsiya qilish bilan xususiyl sektorni rivojlantirish, moliyaviy tizimni isloh qilish bilan investitsion faollikni oshirish, raqamlashtirish bilan institutsional samaradorlikni ta'minlash hamda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan tashqi iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Mualliflar 2009-2022-yillar ma'lumotlari asosida yillik raqobatbardoshlik va barqarorlik (ACAS) indeksini shakllantirib, inson va jismoniy kapital, iqtisodiy rivojlanish hamda demografik omillarning raqobatbardosh va ekologik barqaror iqtisodiy tuzilmani shakllantirishdagi ta'siri hududlar bo'yicha sezilarli farqlanishini asoslaydilar [3]. Olimlar tizimli tadbirkorlikning raqamli transformatsiyaga ta'sirini Yevropa Ittifoqining 27 mamlakati ma'lumotlari asosida ekonometrik baholaganlar. Tadqiqot natijalari tizimli tadbirkorlik raqamli transformatsiyani jadallashtirishini, bunda moliyaviy rag'batlar, infratuzilma, inson kapitali va professional ko'nikmalar muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Mualliflar iqtisodiy rivojlanish darajasi ushbu bog'liqlikni kuchaytirib, yangi biznes va texnologiyalarni rivojlantirish uchun qulay institutsional muhit yaratishini ilmiy asoslaydilar [4]. Mualliflar Polshaning Katovitse aglomeratsiyasidagi ko'mir qazib olishga ixtisoslashgan shaharlar misolida dekarbonizatsiya sharoitidagi iqtisodiy transformatsiya va reindustrializatsiya yo'nalishlarini tadqiq qilganlar. Mualliflar sobiq sanoat hududlariga tizimli investitsiyalar yo'naltirish, iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiyalash, yangi avtomobilsozlik va logistika obyektlarini rivojlantirish bandlik hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashini asoslaydilar. Tadqiqot adolatli energetik o'tishda investitsiya resurslarini yangi iqtisodiy faoliyat turlariga samarali qayta taqsimlash zarurligini ko'rsatadi [5]. Mualliflar “Bir makon, bir yo'l” tashabbusiga qo'shilgan 51 mamlakat misolida yashil investitsiyalar transformatsiyasining yashil iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini empirik baholaganlar. Mualliflar SBM, Super-Efficiency va Minimum Distance to Strong Efficient Frontier modellariidan foydalanib, yashil investitsiyalar transformatsiyasi yashil iqtisodiyot rivojlanishini barqarorlashtirishi, resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilashi va yashil iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishini asoslaydilar [6]. Mualliflar mamlakatlarning raqamli rivojlanishi va iqtisodiy transformatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni kompleks indikatorlar hamda kvantil regressiya asosida tadqiq qilganlar. Mualliflar raqamlashtirish darajasi infratuzilma, raqamli ko'nikmalar, internetdan foydalanish imkoniyatlari, kiberxavfsizlik va biznes muhiti bilan uzviy bog'liqligini asoslaydilar. Shuningdek, raqamli rivojlanish darajasi turlicha mamlakatlarda ushbu omillarning iqtisodiy transformatsiyaga ta'siri sezilarli farqlanishi aniqlangan [7].

F.Yunusov O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilib, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni avvalgi bosqichda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning uzviy davomi sifatida baholaydi. Muallif iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishida boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish, milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash hamda iqtisodiy boshqaruv mexanizmini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv O'zbekiston iqtisodiyotini transformatsiya qilishda islohotlarning uzviyligi va strategik izchilligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi [8]. Q.Q.Mambetjanov iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarining milliy hisoblar tizimiga ta'sirini tadqiq etib, iqtisodiyotdagi tarkibiy va institutsional o'zgarishlar makroiqtisodiy jarayonlarni hisobga olish hamda baholash tizimini ham mutanosib ravishda takomillashtirishni talab etishini asoslaydi. Muallifning yondashuviga ko'ra, iqtisodiy modernizatsiya natijasida yuzaga keladigan yangi





iqtisodiy munosabatlar va tarkibiy o'zgarishlarni milliy hisoblar tizimida to'laqonli aks ettirish iqtisodiy rivojlanish natijalarini obyektiv baholash hamda samarali makroiqtisodiy boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi [9]. Abdunazarov va Ahmatova raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishning mazmuni, afzalliklari va rivojlanish istiqbollari tadqiq qilganlar. Mualliflarning fikricha, raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, axborot almashinuvini tezlashtirish hamda iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli platformalar va elektron moliyaviy operatsiyalarni kengaytirish iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirib, O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi ta'kidlangan [10].

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va xulosalarni umumlashtirgan holda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan tarkibiy, institutsional, investitsion, raqamli va ekologik o'zgarishlarni qamrab oluvchi kompleks iqtisodiy jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiyotni transformatsiya qilishning natijadorligi faqat iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan emas, balki iqtisodiyot tarkibidagi sifat o'zgarishlari, hududlar va tarmoqlarning raqobatbardoshligi, inson va jismoniy kapitaldan foydalanish samaradorligi hamda institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun transformatsiya jarayonlarini baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional indikatorlarni o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvdan foydalanish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli va institutsional yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, tarixiy va mantiqiy tahlil, guruhlash, tizimlashtirish hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlarning mazmuni, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy transformatsiyasini o'zaro bog'liq bir nechta institutsional yo'nalishlarning yagona tizimi sifatida baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tadqiqot natijalariga ko'ra, transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlarini quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tizimlashtirish mumkin (1-jadval):

1. Bank-moliya tizimini transformatsiya qilish. Iqtisodiy transformatsiyaning eng muhim shartlaridan biri moliyaviy resurslarni iqtisodiyot subyektlari o'rtasida samarali taqsimlaydigan raqobatbardosh bank tizimini shakllantirish hisoblanadi. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayonida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish, aktivlar sifatini yaxshilash, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan yo'naltiriladigan kreditlash amaliyotini bosqichma-bosqich bozor mexanizmi bilan almashtirish va strategik investorlarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda banklarni xususiyashtirish davlat aktivlarini oddiy realizatsiya qilish sifatida emas, balki moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish vositasi sifatida qarash kerak. Bank sektoridagi transformatsiya kredit resurslarini ma'muriy taqsimlashdan ularni risk, rentabellik va investitsion samaradorlik mezonlari asosida taqsimlash modeliga o'tishni ta'minlashi zarur.

2. Davlat korxonalarini transformatsiya qilish. O'zbekiston iqtisodiyoti transformatsiyasining ikkinchi muhim yo'nalishi davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi rolini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq. Yirik sanoat, energetika, transport va infratuzilma korxonalarida moliyaviy sog'lomlashtirish, operatsion faoliyat samaradorligini oshirish, zamonaviy korporativ boshqaruv standartlarini joriy qilish va davlatga xos bo'lmagan funksiyalarni qisqartirish transformatsiyaning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Davlat mulkida qoladigan strategik korxonalarda esa kuzatuv kengashlarining mustaqilligini oshirish, faoliyat samaradorligini KPI asosida baholash, xalqaro moliyaviy hisobot va audit standartlarini qo'llash hamda davlat





tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordamlarni shaffoflashligini ta'minlash zarur. Bunday yondashuv davlat korxonalarini “davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xo'jalik subyekti” modelidan “bozor natijalari uchun javobgar korporativ subyekt” modeliga bosqichma-bosqich o'tkazishga xizmat qiladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari va ularning o'zaro bog'liqligi²⁷

№	Transformatsiyaning ustuvor yo'nalishi	Asosiy amalga oshirish mexanizmlari	Transformatsion ta'siri	Kutilayotgan iqtisodiy natija
1	Bank-moliya tizimini transformatsiya qilish	Davlat ulushi mavjud banklarni transformatsiya qilish va xususiy lashtirish.	Moliyaviy resurslarni ma'muriy taqsimlashdan bozor mexanizmi asosida samarali taqsimlashga o'tish	Banklar raqobatbardoshligining oshishi, xususiy kapitalning faollashuvi, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligining oshishi
2	Davlat korxonalarini transformatsiya qilish	Moliyaviy sog'lomlashtirish; zamonaviy korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish.	Davlat korxonalarining bozor tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi korporativ subyektlarga aylanishi	Operatsion samaradorlik va rentabellikning oshishi, fiskal yuk va davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokining qisqarishi
3	Raqobat muhitini rivojlantirish va xususiy sektor rolini oshirish	Monopoliyalarni qisqartirish; bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish.	Resurslarni samarali korxonalar foydasiga qayta taqsimlash va xususiy tashabbusni rag'batlantirish	Xususiy investitsiyalar, tadbirkorlik faolligi, innovatsiyalar va mehnat unumdorligining oshishi
4	Iqtisodiyotni raqamli transformatsiya qilish	Davlat xizmatlari, soliq va bojxona jarayonlarini raqamlashtirish; ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish.	Transaksiyon xarajatlar va byurokratik to'siqlarni kamaytirish, boshqaruv shaffofligi va tezkorligini oshirish	Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, biznes xarajatlarni kamayishi, raqamli xizmatlar va raqamli iqtisodiyot ulushining kengayishi
5	Transport-logistika tizimini transformatsiya qilish	Temir yo'l va aviatsiya kompaniyalari biznes-modellarini takomillashtirish	Ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, hududlararo hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarni jadallashtirish	Logistika xarajatlarning kamayishi, tranzit va eksport salohiyatining oshishi, O'zbekistonning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvining kuchayishi
6	Yakuniy transformatsion natija	Yuqoridagi besh yo'nalishdagi islohotlarni o'zaro muvofiqlashtirish va yagona monitoring tizimi asosida boshqarish	Institutsional, moliyaviy, raqamli va infratuzilmaviy transformatsiyaning ta'sirini shakllantirish	Raqobatbardosh, xususiy sektor yetakchiligiga asoslangan, raqamli va barqaror milliy iqtisodiyot modelini shakllantirish

3. Xususiy sektor va raqobat muhitini rivojlantirish. Transformatsiyaning samaradorligi davlat sektorining qisqarishi bilangina emas, balki uning o'rnida raqobatbardosh xususiy sektor shakllanishi bilan belgilanadi. Shuning uchun davlat va xususiy korxonalar uchun moliyaviy resurslar, yer, infratuzilma va davlat xaridlaridan foydalanishda teng sharoit yaratish; iqtisodiyotning raqobat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan tarmoqlarida eksklyuziv huquqlarni qisqartirish; bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish hamda monopol mavqeni cheklash transformatsiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlatning iqtisodiy funksiyasi bevosita ishlab chiqaruvchi va xo'jalik yurituvchi subyekt rolidan samarali bozor institutlarini yaratuvchi, raqobatni himoya qiluvchi va xususiy tashabbus uchun institutsional sharoit yaratuvchi subyekt roliga o'tishi zarur.

4. Raqamli transformatsiya. O'zbekiston iqtisodiyotini transformatsiya qilishning keyingi strategik yo'nalishi iqtisodiyot va davlat boshqaruvini raqamlashtirish hisoblanadi. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash, soliq va bojxona ma'murchiligini avtomatlashtirish, elektron to'lovlarni rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarda inson omilini qisqartirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Raqamlashtirishning transformatsion samarasi faqat xizmatlarni elektron shaklga o'tkazish bilan chegaralanmasligi kerak. Keyingi bosqichda “raqamlashtirish - ma'lumotlar integratsiyasi - real vaqt rejimidagi monitoring - tahliliy prognozlash - dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlari” zanjirini shakllantirish zarur. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy transformatsiya samaradorligini baholovchi yagona raqamli monitoring platformasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

5. Transport-logistika tizimini transformatsiya qilish. O'zbekistonning geografik joylashuvi va dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatining mavjud emasligi transport-

²⁷ Muallif tomonidan tuzilgan





logistika tizimini iqtisodiy transformatsiyaning strategik elementi sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi. Aviatsiya va temir yo‘l tizimida davlat korxonalarining biznes-modellarini takomillashtirish, operatsion va tartibga soluvchi funksiyalarni bosqichma-bosqich ajratish, xususiy operatorlarning bozorga kirishini kengaytirish hamda infratuzilma loyihalariga davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali xususiy kapitalni jalb qilish zarur. Transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish esa faqat logistika xarajatlarini qisqartirish vositasi emas, balki O‘zbekistonning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi, eksport geografiyasini kengaytirish va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish omili sifatida baholanishi kerak.

Xulosa

2017-2021-yillardagi Harakatlar strategiyasi va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o‘rtasida uzviy institutsional davomiylik mavjud. Agar Harakatlar strategiyasi iqtisodiyotni liberallashtirish, bozor institutlarini shakllantirish va tadbirkorlik faoliyati uchun bazaviy shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilgan bo‘lsa, 2022–2026-yillardagi Taraqqiyot strategiyasi ushbu jarayonlarni chuqurlashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi rolini maqbullashtirish, xususiy sektorning yetakchi mavqeini kuchaytirish, raqobat muhitini takomillashtirish hamda raqamli va infratuzilmaviy transformatsiyani jadallashtirishga yo‘naltirilgan yangi bosqichni boshlab berdi. Binobarin, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning evolyutsiyasini “liberallashtirish-institutsional islohotlar-tarkibiy transformatsiya-xususiy sektor rolini kuchaytirish-raqamli va infratuzilmaviy modernizatsiya” ketma-ketligida baholash mumkin. Mazkur jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini ta‘minlash va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘rta modelini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, davlat xizmatlari va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish hamda transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Mazkur yo‘nalishlarning amalga oshirilishi biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish, davlat boshqaruvi samaradorligi va shaffofligini oshirish, hududlar va tarmoqlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Bank-moliya tizimining transformatsiyasi iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish imkoniyatlarini kengaytirsa, davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini maqbullashtirishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, raqobat muhitining takomillashuvi xususiy sektor faolligi, investitsiyalar va innovatsiyalar uchun zarur iqtisodiy rag‘batlarni shakllantiradi. Iqtisodiyot va davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi mazkur jarayonlarning shaffofligi va samaradorligini oshirsa, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish ichki va tashqi bozorlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini jadallashtirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiya qilishning zamonaviy bosqichida davlat ishtirokini maqbullashtirish, bank-moliya tizimi va davlat korxonalarini transformatsiya qilish, xususiy sektor uchun teng raqobat sharoitlarini shakllantirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish o‘zaro bog‘liq strategik yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur yo‘nalishlarning bir-biri bilan uyg‘un va izchil amalga oshirilishi iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, tarkibiy nomutanosibliklarni qisqartirish, xususiy investitsiyalarni faollashtirish va iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”





Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni.

3. Santos A., Conte A. Measuring regional economic transformation: Which European regions are leading the competitiveness and sustainability challenge? // *Global Challenges & Regional Science*. – 2025. – Vol. 4.

4. Guimarães J., Fernandes C., Veiga P.M., Ramadan V. Digital transformation influenced by systemic entrepreneurship: the moderating effects of level of economic development // *Journal of Enterprising Communities: People and Places in the Global Economy*. – 2025. – Vol. 20, No. 3. – P. 835–853.

5. Dragan W., Zdyrko A. The spatial dimension of coal phase-out: Exploring economic transformation and city pathways in Poland // *Energy Research & Social Science*. – 2023. – Vol. 99.

6. Liu J., Qiu F., Zhang T., Liu H. Dynamics of green economic development in countries joining the Belt and Road Initiative: Is it driven by green investment transformation? // *Journal of Environmental Management*. – 2023. – Vol. 347.

7. Kuzior A., Vasylieva T., Kuzmenko O., Koibichuk V., Brożek P. Global Digital Convergence: Impact of Cybersecurity, Business Transparency, Economic Transformation, and AML Efficiency // *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*. – 2022. – Vol. 8, Issue 4. – P. 1–24.

8. Yunusov F. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ustuvor vazifalar // “Taraqqiyot strategiyasi” markazi. – 2021. – 18 noyabr. – Elektron manba. – strategy.uz

9. Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarining milliy hisoblar tizimiga ta’siri // *Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy*. – 2016. – № 9. – B. 43–48.

10. Abdunazarov S.A., Ahmatova X.N. Raqamli transformatsiya jarayonida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish yo‘llari va istiqbollari // *Teoreticheskie aspekty stanovleniya pedagogicheskix nauk*. – 2025. – Vol. 4, Issue 19. – B. 64–68.

